



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TURIZM VA SPORT VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI**

**“JISMONIY TARBIYA, SPORT MASHG'ULOTLARI NAZARIYASI VA
USLUBIYATINING NAZARIY-AMALIY MUAMMOLARI”
XALQARO ILMiy-AMALIY ANJUMAN**

2022 yil 29 yanvar

**МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
"ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ - ПРАКТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ТЕОРИИ И
МЕТОДИКИ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ, СПОРТА"**

29 январ 2022 год

**THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE
"THEORETICAL AND PRACTICAL PROBLEMS OF THEORY AND
METHODOLOGY OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORT"**

January 29, 2022

CHIRCHIQ - 2022

Специальная подготовка гимнасток на завершающем этапе подготовки взаимосвязана с хореографической подготовкой, направленной на: дифференциацию пространственно-динамических параметров (от $r=0,71$ до $r=0,83$); дифференциацию пространственных параметров (от $r=0,74$ до $r=0,82$); на развитие активной гибкости ($r=0,82$). Также, положительное влияние на специально - двигательную подготовку гимнасток оказывают используемые в процессе учебных занятий по хореографии элементы современных танцев, выполнение хореографических заданий в усложненных пространственных ориентирах.

В результате проведенного исследования были обнаружены тесные корреляционные связи между параметрами общей, специально-двигательной и хореографической подготовленностью и сложные механизмы взаимодействия этих видов подготовки на спортивно-технический результат.

Дальнейшие исследования в данном направлении предполагают составление и апробацию на практике хореографических заданий с учетом специфики спортивных видов гимнастики.

Литературы

1. Гавердовский Ю. К., Лисицкая Т. С., Розин Е. Ю., Смолевский В. М. Спортивная гимнастика (мужчины и женщины). Примерные программы спортивной подготовки для детско-юношеских спортивных школ, специализированных детско-юношеских школ олимпийского резерва, и школ высшего спортивного мастерства. М.: 2005. – 420 с.
2. Гавердовский Ю.К. Обучение спортивным упражнениям. Биомеханика. Методология. Дидактика. М.: Советский спорт, 2008. - 912 с.
3. Лисицкая Т.С. Хореография в гимнастике. - М.: Физкультура и спорт, 1984. - 176 с.
4. Платонов, В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Общая теория и ее практические приложения. учебник [для тренеров]: в 2 кн. Киев: Олимпийская литература, Кн. 2., 2015. -752 с.
5. Смолевский В.М., Гавердовский Ю.К. Спортивная гимнастика: Учеб. Для ин-тов физ. культ.– Киев: – 1999. – 462 с.
6. Хореографическая подготовка гимнасток на начальном этапе обучения (художественная гимнастика). Методические рекомендации /Сост. Ж.А. Белоконьцова, А.А. Тимошенко. - К.: КТИФК, 2000. – 64 с.
7. Шипилина И.А. Хореография в спорте. / Серия "Образовательные технологии в массовом и олимпийском спорте" - Ростов н/Д: "Феникс", 2004. - 224с.

BO'LAJAK JISMONIY TARBIIYA O'QITUVCHILARINING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISH VA O'QUVCHI-YOSHLAR JISMONIY MADANIYAT HARAKATINI BOSHQARISHNING SAMARALI USULLARI

Fatullayeva Muazzam Azimovna

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi.

Buxoro, O'zbekiston.

Fatullayev Rahmatulloh Azimovich

Saidmumin Rahimov nomidagi Tojikiston davlat jismoniy tarbiya instituti, 2-kurs talabasi

e-mail: muazzamfatullaeva@mail.ru.

Аннотация. Мақолада бо'лажак jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy mahoratini rivojlantirish yo'llari, pedagogik kasbining o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy mohiyati, o'quvchi-yoshlar jismoniy madaniyat harakatini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari aks ettirilgan.

Калит so'zlar: Jismoniy tarbiya o'qituvchilari, kasbiy mahorat, zamonaviy pedagog, insoniy va kasb sifatlar, jismoniy madaniyat va sport boshqaruv.

Аннотация. В статье рассмотрены пути развития профессиональных навыков будущих учителей физической культуры, специфика педагогической профессии, ее социальная значимость, специфика управления студенческо-молодежным физкультурным движением.

Ключевые слова: учителя физической культуры, профессиональные качества, современная педагогика, человеческие и профессиональные качества, физкультурно-спортивный менеджмент.

Annotation. The article describes the ways to develop the professional skills of future physical education teachers, the specifics of the pedagogical profession, its social significance, the specifics of the management of the student-youth physical culture movement.

Keywords: Physical education teachers, professional skills, modern pedagogy, human and professional qualities, physical culture and sports management.

Yurtimiz aholisining salomatlik darajalarini yaxshilash, ta'lim muassasalarida, aynan uzhaksiz ta'lim jarayonlarini amalga oshirish, o'quvchi yoshlarni jismonan barkamol etib tarbiyalash, ularni jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari hamda ommaviy sport musobaqalariga to'la jalb qilish hozirgi davrning dolzarb mavzusi hisoblanadi.

Davlatimiz tomonidan yangi, mustaqillik g'oyalari bilan qurollangan, koinil shaxsni tarkib toptirish dasturi hamisha dolzarb bo'lib, u bugungi kunning talabini aks ettiradi. Shunga qaramasdan, bozor iqtisodiyoti sharoitida faqat barkamol shaxsni tarbiyalab qolmasdan, uning tashabbuskorlik, kreativlik va tadbirkorlik sifatlarini ham rivojlantirish talab etiladi. Bu sifatsiz bozor iqtisodi sharoitida shaxsning barkamolligi to'la yuzaga chiqmaydi. Bunday sifatlarni yuzaga chiqarish uchun albatta, o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat talab etiladi.

Pedagogik mahorat o'qituvchi – tarbiyachiga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, ta'lim – tarbiya jarayonida o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning o'zaro hamkorligi, muloqot olib borish taktikasi, muq madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma'naviy – ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, bu jarayonda xulq-atvorni va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini o'rgatadi va o'z kasbini rivojlantirib boruvchi pedagogik faoliyatlar tizimi to'g'risida ma'humotlar beradi. Pedagogik mahorat o'qituvchining pedagogik faoliyati zaminida takomillashib boradi. Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta'lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan o'qituvchilar mehnati faoliyatidir [4].

Pedagogik mahorat egasi bo'lish uchun o'qituvchi o'z o'quv predmetini davr talablari asosida bilishi, pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo'lishi, hamda insoniylik, izlanuvchanlik va fidoyilikni o'zida tarkib toptirishi lozim. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, quyidagi to'rtta komponent pedagogik mahoratning asosiy tashkil etuvchilari hisoblanadi: a. o'qituvchilik kasbiga sadoqat; b. o'z fanini o'qitish metodikasini mukammal bilishi; c. pedagogik qobiliyatlarini namoyish eta olishi; d. pedagogik texnikani o'z o'rnida qo'llay bilishi.

Pedagogik kasbi muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, pedagog yosh qalblar kamolotining me'moridir. Bugun yoshlarni g'oyaviy - siyosiy jihatdan chinig'itirib, tabiat, jamiyat, tafakkur taraqqiyoti, qonuniyatlarini o'rgatar ekan, avvalo, u yosh avlodni kelajak mehnat faoliyatiga tayyorlashi, kasb - hunar egallashlariga ko'maklashishi va jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy - iqtisodiy vazifani hal etishga chog'lamog'i darokor. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy istiqloq g'oyasi Respublika Konstitutsiyasida e'tirof etilgan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va jamiyatni barpo etish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishning yuqori bosqichlariga ko'tarish, jahon hamjamiyati safidan munosib o'rin egallashga yo'naltirilgan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ana shu ma'suliyat bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilaridan o'z kasbining mohir ustasi bo'lishni, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste'dodi, e'tiqodi va amaliy ko'mikmalarini har tomonlama rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab topadigan kasb egasi bo'lishni talab etadi. Buning uchun bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilaridan doimo kasbiy mahorati ustida izlanish

uchun, unga turli shart - sharoitlar yaratishi, kerakli moddiy va ilmiy - metodik yordam ko'rsatishi hamda o'qituvchining ijodiy tashabbuskorligini oshirishiga ko'maklashadi. Zamonaviy pedagog quyidagi qobiliyatlarni o'zida aks ettirishi lozim: 1. Tashkilotchilik qobiliyati - o'quvchilarni birlashtirish, vazifalar bilan band qilish, javobgarlikni taqsimlash, umumiy topshiriqlar bajarishda ko'rinadi. 2. Didaktik qobiliyati - o'quv materialini, ko'rgazmalarni tanlash va tayyorlash, o'quvchilarning bilishga nisbatan qiziqish va ehtiyojlarini rag'batlantirish, o'quv faolligini oshirishda namoyon bo'ladi. 3. Perseptiv qobiliyati - o'quvchining ma'naviy dunyosiga kira olish, ruhiy-emotsional holatini aniqlash va ob'yektiv baholay olish, pedagogik intuitsiya va empatiyada ko'rinadi. 4. Kommunikativ qobiliyati - o'quvchilar, hamkasblar va rahbariyat bilan pedagogik maqsadga muvofiq munosabat o'rnatish, muloqotga tez kirishish, ekstrovertlikda namoyon bo'ladi. 5. Suggestiv qobiliyati - o'quvchilarga emotsional irodaviy ta'sir ko'rsatish, ularni o'z imkoniyatlariga ishonтира olishda ko'rinadi. 6. Ilmiy-tadqiqotchilik qobiliyati - pedagogik vaziyat va jarayonlarni o'rganish va baholash malakalari tushuniladi. 7. Nutq qobiliyati - aniq va ishonchli, emotsiyali, madaniyatli, lug'atijihatdan boy nutq texnikasiga ega bo'lish. O'quv-tarbiyaviy jarayonda pedagogning insoniy xislatlari alohida muhimlik kasb etadi. Bu xislatlar qatoriga insoniylik, adolatlilik, mehribonlik, sabr-bardosh, to'g'rilik, haqiqat-go'ylik, javobgarlik, adolatlilik, majburiylik, ob'yektivlik, sahiylik, insonlarga bo'lgan muhabbat, hurmat, yuqori ma'naviyatlilik, optimizm, emotsional vazminlik, muloqotga bo'lgan ehtiyoj, tarbiyalanuvchilar hayotiga bo'lgan qiziqish, olijanoblik, o'z-o'zini tanqid qilish, do'stsevarlik, vazminlik, qadr-qimmat, vatandarparvarlik, diniy e'tiqod, prinsipiiallik, emotsional madaniyat va boshqalar kiradi [4].

Jismoniy tarbiya o'qituvchilari quyidagi insoniy va kasb sifatlariga ega bo'lishi kerak: tashkilotchilik talanti; muomala madaniyati, o'quvchilarni tanlay bilish; analiz va tahlil qilish; ishda sog'lom muhit yaratish, har qanday fikrni hurmat qilish, o'z atrofiga ishchan va tashabbuskorlarni to'plab, kuchli jamoa tuzish; odamlarni tushunish, til topa bilish; adolatlilik, o'zaro yordam, huquqiy savodxon, ozoda kiyinib yurish, ochiq chehra, odamlarga yordam berishga doim tayyor bo'lib turish, xushmuomala, muntazam mashq qilish, ishonch bilan qadam tashlash, tanqidni o'z foydasiga deb bilish, turli fan asoslari va turli mavzularda suhbatga kirisha olish, yangiliklardan doimo xabardor bo'lib yurish va boshqalar. Bu sifatlar o'quvchi va o'quvchi-yoshlar jismoniy madaniyatini samarali boshqara olish bilan birgalikda jamiyatdagi boshqa hayotij faoliyatlarida ham muhim ahamiyatga ega. Yuqorida bayon etilganlar jismoniy madaniyat va sport mutaxassislari faoliyati mazmunini to'la ochib bermasada, uning faoliyatini baholash mezonlariga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Jismoniy madaniyat va sport mutaxassislari faoliyatining asosini uning kasb qobiliyati to'laroq aks ettiradi, shuningdek, boshqaruvchilik tayyorgarligi ham bunda muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqaruvchining faoliyat samaradorligida uning shaxs-insonij fazilatlari birinchi o'rinda tursa, ikkinchi o'rinda uning shaxs-boshqaruvchilik qobiliyatlari turadi [2,8,9].

O'quvchi-yoshlar jismonij madaniyat harakatini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib unga quyidagilarni kiritish mumkin:

-jismonij madaniyat harakati ta'lim tarbiya va xalq salomatligini saqlash va mustahkamlash bilan bog'liq asloqij tushuncha bo'lganligi uchun, biz hamisha maqsadga muvofiq ravishda asloqqa oid qarorlarni ishlab chiqishimiz va qabul qilishimiz lozim. Chunki biz tarmoq bo'yicha o'sib kelayotgan yosh avlodni shakllantirish orqali Vatanimiz kelajagi uchun harakat qilamiz.

-jismonij madaniyat harakatini boshqarish - bu sifat va son ko'rsatkichlari orqali anij ifodalanadigan fan va san'at natijasi bo'lib, unda odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar katta ahamiyatga ega.

-boshqaruv mazmunini aks ettiradigan shaxslararo, davlat va jamoatchilik munosabatlarining birligi, bir-biri bilan bog'liqligi;

- jismonij madaniyat va sport boshqaruvida jamoatchilikni keng ishtirok etishi;

- jismonij madaniyat va sport boshqaruv shakllarining muntazam takomillashib borishi, iqtisodij, ijtimoiy-psixologik, tashkiliy pedagogik usullardan keng foydalanish va boshqalar [1,5,6].

Jismonij madaniyat va sportda yana bir sinalgan va ishonchli usul - bu jismonij madaniyat va sportni tizimga solib yoki tizimlarga bo'lib boshqarishdir. Tizimli boshqarishning asosij sharti aloqa va qayta aloqa

bo'lib, u tumanlar, shaharlar, viloyatlar oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari, umumta'lim maktablari o'rtasida aloqa va qayta aloqani o'rnatib, kuchli va ishonchli boshqaruv tizimini yaratadi. Buning uchun albatta, zamonaviy aloqa vositalari zarur bo'ladi. Jismoniy madaniyat va sport boshqaruvida oy, yil va istiqbol davrga moslab maqsad va vazifalar bo'yicha aniq maqsad qo'yish, maqsadga erishish yo'lida barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etish muhim ahamiyatga ega [3, 7].

Jismoniy madaniyat va sport boshqaruvida aholiga sifatli xizmat ko'rsatish yoki xizmat ko'rsatish sifati katta ahamiyatga ega. Mijozlarga imtiyoz berish, targ'ibotni kuchaytirish, yaxshi muomala qilish, muntaзам aloqa, xodimlarni ishlashga rag'batlantirish boshqaruv natijalarining samaradorligiga xizmat qiladi.

Jismoniy madaniyat va sport o'quvchi-yoshlar va ishchilarning, aqliy mehnat kishilarining salomatligini saqlash va mustahkamlashda ham keng foydalaniladi. Jismoniy madaniyat va sportning sog'lomlashtiruvchi yo'nalishi, uni rivojlantirishning qomuniy asosi bo'lib xizmat qiladi. Bu asos aholi keng qatlamlari orasida uchraydigan kam harakatlilikka (gipodinamiya) qarshi kurash tamoyili bilan ifodalanadi. Sababi, hozirgi ishlab chiqarishning zamonaviy xususiyatlari ko'pgina mutaxassisliklarda kishilarni o'tirib, kam harakat qilib ishlashini talab etadi. Kam harakatlilik o'z navbatida turli xil kasalliklarni, jumladan kasb kasalliklarini keltirib chiqaradi, organizmning asosiy hayotiy tizimlari faoliyatini buzadi. Bunday salbiy oqibatlariga qarshi kurashishda, ularni oldini olishda va davolashda jismoniy madaniyat va sport-sog'lomlashtirish tadbirlarining o'rni beqiyosdir.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari organizmning qarishi bilan bog'liq jarayonlarni 10-15 yilgacha kechiktiradi, uzoq va sermavzun hamda ijodiy umr ko'rishga yordam beradi. Jismoniy madaniyat mashg'ulotlarining sport mashqi, ishlab chiqarish gimnastikasi, kasb-amaliy jismoniy tayyorgarlik va boshqalarda salomatlik samaradorligiga erishishni muhim zaruriy qoida sifatida belgilab qo'yish kerak. Jismoniy madaniyat vositalarini, shakllarini tanlashda jismoniy yuklamalarni salomatlik muqoi-nazaridan boshqarib, muvofiqlashtirib borish tamoyiliga asoslanish kerak. Buning uchun o'tkaziladigan va har bir odamga tavsiya qilinadigan jismoniy mashqlarni bajarishga va mashg'ulotlarga kirishishdan oldin, albatta salomatlikni tekshirib ko'rish o'qituvchi va murabbiylarning, tibbiyot xodimlarining majburiy vazifalaridan biridir. Aksari hollarda vrach va murabbiylarning xatolari tufayli tuzatib bo'lmaydigan holatlar yuzaga kelishi mumkin. Jismoniy madaniyat bilan ongli, ilmiy asoslangan, amaliy sinab ko'rilgan tavsiyalarga asosan shug'ullanilgandagina ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. *Ўзбекистон Республикаси* "Олимпик спорт таработинини янада кучайтириш чора талбирлари тўғрисида" ги қарор. 4 ноябр 2003 й.
2. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. Москва, 1991. -536.
3. Nurullayev A.R. Jismoniy madaniyat va sport. Buxoro, 2018. -6 b.
4. Софизодовларов Н. Педагогик мақорат ва педагогик технология. - Т, 2003 -62 б.
5. Azimova F. M. Formation of spiritual and moral values of pupils in physical education lessons //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – T. 9. – №. 11. – C. 99-103.
6. Muazzam A. F., Farrux A. N. Motivation of students to do sports as part of physical education classes. *Academicia. An international multidisciplinary Research Journal*. Year: 2020, Volume: 10, Issue: 5. P: 1446-1450 //Online ISSN. – T. 22497137.
7. Nazmatovich K. S. Abduyeva Sitarabonu Savriddin kizi, Fatullayeva Muazzama Azimovna, Kurbanov Shukhrat Kuldotshevich. Using of innovation terms in physical education and sport lessons and their social and educational features //Journal of Critical Reviews. doi. – T. 10. – C. 470-471.
8. Azimova F. M. Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari jarayonida aqliy tarbiya va uning ahamiyati. Integration into the world and connection of sciences. – 2020.
9. Azimova F. M. THE QUALITY ASSESSMENT TECHNOLOGY AND DEVELOPMENT TECHNIQUES IN VOLLEYBALL PLAYERS //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – T. 2. – №. 04. – C. 242-248

<i>Dadabaev O.J. U2GUFKS. Effektivnost optimizatsii planirovaniya podgotovki yunix sportsmenov po adinoborstvam</i>	789
<i>Dadaboeva O.A. MDTT. Jismoniy tarbiya va sport sohasida marketing</i>	792
<i>Davidova K.R., Davronova I.A., Moiseeva M.V. U2GUFKS. Osobennosti spetsialnoy fizicheskoy podgotovki v lyogkoy atletike</i>	794
<i>Davronova I.A., Davidova K.R. O2DJTSU. Zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimida jismoniy tarbiya va sport</i>	797
<i>Djurabekov E.T. TGAU. Osobennosti organizatsii metodiki obucheniya fizicheskoy kulturi v vizaz</i>	799
<i>Epifanova E.S. USUPhES. Questionnaire-as a method of research of popularization of youth to sports in adolescence</i>	801
<i>Egamberganova D. UrDU. 14-15 yoshli gandbolchilarni sakrovchanlikni rivojlantirish uslublari</i>	803
<i>Ergashov B.D. O2DJTSU. Belbog'li kurashchilarning marcus chidamkorligini rivojlantirish metodikasi</i>	806
<i>Ergashov B.D. O2DJTSU. Belbog'li kurashchilarda texnik – taktik harakatlarni takomillashtirishda chaqqonlik sifatini o'rni</i>	809
<i>Eshpo'latova D.M., Safarov O'. NDPI. Yosh gimnastikachilarning koordinatsion qobiliyatlarini marcus jismoniy mashqlar orqali rivojlantirish</i>	812
<i>Eshtaev A.K. U2GUFKS. Pervoocharednie osnovi texnicheskoy podgotovki yunix gimnastov</i>	814
<i>Eshtaev A.K. U2GUFKS. spetsialno-dvigatel'naya podgotovka studentok spetsializiruyushchaya po sportivnoy gimnastike</i>	816
<i>Fatullayeva M.A., BuxDU. Fatulloyev R.A. Bo'laqak jismoniy tarbiya o'qinuvchilarining kasbiy mahoratini rivojlantirish va o'quvchi-yoshlar jismoniy madaniyat harakatini boshqarishning samarali usullari</i>	819
<i>Fedorova S. U2GUFKS. Razvitiye koordinatsionix sposobnostey yunix figuristov 7-8 let</i>	823
<i>G'ofurov B.X. O2DJTSU. Jismoniy tarbiya muttassisi tayyorlashning zamonaviy jihatlari</i>	824
<i>Gafurbaeva L.F., Didrix V.S. U2GUFKS. Teoreticheskie osnovi o'tbora i podgotovki sportivnogo rezerva v akademicheskoy greble</i>	826
<i>Galaev Q.K. GulDU. O'zbek kurashi tarixi va uni ommalashtirish masalalari</i>	827
<i>G'aniboev I.D., Zhyayev F.CH. O2DJTSU. Bosqon ulogtirishda harakat texnikasining samaradorligini belgilovchi omillar</i>	830
<i>Ganiyeva F.V. O2DJTSU. Globallashuv davrida basketbolchilar ma'naviyatini shakillantirishning o'ziga xos xususiyatlari</i>	834
<i>Ganiyeva F.V. O2DJTSU. Yosh basketbolchilarda orqaga harakatlanish tezligini rivojlantirish uslubiyati</i>	838
<i>Habibjonova X.M. O2DJTSU. Gandbol ixtisosligida tahsil oluvchi talaba qizlarning chaqqonlik jismoniy sifatini rivojlantirish va nazorat qilish vosita va uslublari</i>	841
<i>Habibullaev Ubaydullo O2DJTSU Farg'ona filiyal. Yosh sportchilar tayyorlashda murabbiy va o'quvchi o'zaro munosabatlarining xususiyati</i>	844
<i>Hakimov Sh.R. O2DJTSU. Akademik eshak echuvchilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish</i>	845
<i>Hamidullayeva S.Sh. O2DJTSU. Bolalarda jismoniy sifatlarning umumiy tasnifi va ularni rivojlantirish yo'llari</i>	850
<i>Haydarov B. T., Tojdiyev U.M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini futbol mashg'ulotlarida harakatlanish texikasiga o'rgatish yullari</i>	854
<i>Haydarov F.I. O2DJTSU. Bo'lg'usi psixologlar kasbiy kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari</i>	856
<i>Ibragimov F. O2DJTSU. Yosh voleybolchilarni tayyorlash jarayonlari: vosita va uslublar</i>	863